



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№1
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 130 sahifa,
5-yanvar, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Muhandislik grafikasi bo'yicha raqamli kompetensiyalarni shakllantirishda grafik dasturlardan foydalanish metodikasini yaratish.....	34
<i>Axmatova Asila Akmaljon qizi</i>	
Investigation on the Efficacy of Pedagogical Approaches in Virtual Learning	37
<i>Burkhonova Zarafuz Qobilovna, Makhmudov Shaxboz Muzzafarovich</i>	
The Role of Input And Interaction in Second Language Acquisition.....	40
<i>Dilorom Poyonova</i>	
Muhandislik yo'nalishida kartografiya fanini integratsiyalashgan holda o'qitish	45
<i>Kazakbayeva Muxabbat Turabayevna</i>	
Incorporation of Moocs Into the Digital Educational Framework for the Development of Professional Speech Culture.....	49
<i>Kudrat-Zoda Kamola Alisherovna</i>	
Pedagogical Strategies for Enhancing Students' Creative Thinking Throughout the Learning Process	52
<i>Makhmudova Ugiloy Baxtiyarovna</i>	
Kognitiv yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning media savodxonligini rivojlantirish	57
<i>Mirzayeva Mayramxon Zaynobiddinovna</i>	
Transformatsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirish.....	61
<i>Mirzayeva Ziyoda Uktamjonovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish	65
<i>Qurbonboyeva Gulnoza Mahmud qizi</i>	
An Online Service that Integrates Up-To-Date Content From Well-Known Mooc Platforms	68
<i>Rakhimberdiyev Rustam Abdunasirovich, Abdurahmonova Osiyo Jahongirovna</i>	
The Fourth Phase of Distance Education: Integrated Technologies and Moocs	71
<i>Rahimberdiyev Rustam Abdunasirovich, TaranenkoTatyana Viktorovna</i>	
Gamifikatsiya orqali iqtidorli o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini oshirish	74
<i>Rustamova Manzura Mirkamolovna, Xaytbayeva Malika Qobil qizi</i>	
Boshlang'ich ta'lim fanlarini didaktik o'yinlar orqali tushuntirish	77
<i>Rustamova Manzura Mirkamolovna, Shomaxsudova Diyora Dilshod qizi</i>	
O'smirlar orasida alkogolizm, giyohvandlik va toksikomaniya profilaktikasi	80
<i>Sh. F. Mustafayeva</i>	
Educational Physics Experiments: Methods and Didactic Strategies for Developing Critical Thinking in Students	85
<i>Turayev Alimjan Bahriddinovich</i>	
The Problems of Remote Learning Technology and Global Trends in University Education Development.....	88
<i>Tursunov Begzod Sherzodovich, Shukurova Madina</i>	
A Case Study of Humanities Disciplines Using Massive Open Online Courses as a Resource for Blended Learning	91
<i>Tursunov Begzod Sherzodovich, Eshkabilov Kodirali Davlatmuratovich</i>	
Modern Education and Training Practices for Future Dentists	94
<i>Turumova Marjona Bahodirovna</i>	
Kommunikativ yondashuv asosida nutqiy kompetensiyani shakllantirish.....	98
<i>Tuxtayeva Mehriyo Shavkatovna</i>	
Maktabgacha ta'lim jarayonida mutaxassislik fanlarini o'qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar: amaliy muammolar va ularning innovatsion yechimlari	102
<i>Xabibulayeva Shaxrizoda O'ktam qizi</i>	



Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarda nutq o'stirish darslari orqali Soft Skills ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy pedagogik psixologik asoslari	106
<i>Xoldarova Mubina Qudratbek qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhit va uning turlari	110
<i>Xolmirzayeva O'g'iloy Murotali qizi</i>	
Развитие компетенций студентов-биологов в изучении языков	114
<i>Абдуллаева Нигора Курбановна</i>	
Формирование интереса и повышение эффективности школьного урока физической культуры	118
<i>Мукимов Олим Эргашевич</i>	
Incorporation of Massive Open Online Courses Into the Higher Education Framework	122
<i>Rakhimberdiyev Rustam Abdunasirovich, Nasrullayev Javlonbek Tal'atjonovich</i>	
Совершенствование инновационной методики социально-педагогической деятельности будущих педагогов в полилингвальной среде с использованием искусственного интеллекта	125
<i>Хужаниязова Гузаль Юлдашевна</i>	

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA RIVOJLANTIRUVCHI MUHIT VA UNING TURLARI

Xolmirzayeva O'g'iloy Murotali qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim kafedrası stajyor-o'qituvchisi

ORCID: <https://orcid.org/0009-0000-7738-5189>

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishning nazariy asoslari, tamoyillari, turlari va amaliy tatbiqi masalalari tadqiq etilgan. Jahon pedagogikasidagi ilg'or yondashuvlar (Montessori, Reggio Emilia, konstruktivistik va boshqalar), shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi hamda me'yoriy hujjatlarida belgilangan talablar tahlil qilingan. Rivojlantiruvchi markazlarning turlari, ularning bolaning shaxsiy, kognitiv, ijtimoiy va ijodiy rivojlanishidagi o'rni, ularni tashkil etishning ilmiy-metodik jihatlari hamda pedagogning roli o'rganilgan. Tadqiqot natijalari asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida samarali rivojlantiruvchi muhitni yaratish va uni baholash bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: rivojlantiruvchi muhit, rivojlantiruvchi markazlar, maktabgacha ta'lim, bolaning shaxsiy rivojlanishi, konstruktivistik yondashuv, o'quv muhiti, "Ilk qadam" dasturi.

Abstract: This article investigates the theoretical foundations, principles, types, and practical application of organizing a developmental environment in preschool educational institutions. Advanced approaches in world pedagogy (Montessori, Reggio Emilia, constructivist, and others), as well as the requirements established in the State Curriculum "Ilk qadam" and regulatory documents of the Republic of Uzbekistan, are analyzed. The types of developmental centers, their role in a child's personal, cognitive, social, and creative development, the scientific and methodological aspects of their organization, as well as the role of the teacher are examined. Based on the research results, recommendations have been developed for creating an effective developmental environment and assessing it in preschool institutions.

Key words: developmental environment, developmental centers, preschool education, child's personal development, constructivist approach, educational environment, "Ilk qadam" curriculum.

Аннотация: В данной статье исследованы теоретические основы, принципы, виды и практические вопросы организации развивающей среды в дошкольных образовательных учреждениях. Проанализированы передовые подходы мировой педагогики (Монтессори, Реджо Эмилия, конструктивистский и другие), а также требования, установленные в Государственной учебной программе "Илк кадам" и нормативных документах Республики Узбекистан. Изучены виды развивающих центров, их роль в личностном, когнитивном, социальном и творческом развитии ребёнка, научно-методические аспекты их организации, а также роль педагога. На основе результатов исследования разработаны рекомендации по созданию эффективной развивающей среды и её оценке в дошкольных учреждениях.

Ключевые слова: развивающая среда, развивающие центры, дошкольное образование, личностное развитие ребёнка, конструктивистский подход, образовательная среда, программа "Илк кадам".

KIRISH

Maktabgacha yoshdagi bolalarning yaxlit shaxs sifatida shakllanishi va rivojlanishi ular faoliyat olib boradigan asosiy muhit – maktabgacha ta'lim tashkilotining pedagogik sharoitlariga bevosita bog'liq. Rivojlantiruvchi muhit nafaqat bolalarning psixofiziologik va intellektual qobiliyatlarini oshiradi, balki ularning ijtimoiylashuvi, mustaqilligi, ijodiy va kognitiv faolligini ham rag'batlantiradi. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha qator ustuvor chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2019-yil 8-maydagi PF-4312-sonli Prezident Farmoni va 2020-yil 22-dekabrda 802-sonli Vazirlar Mahkamasining buyrug'ida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida zamonaviy talablarga mos rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish vazifasi aniq belgilangan. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi bolani faoliyat markaziga qo'ygan holda, uning rivojlanishi uchun qulay sharoitlar – o'quv muhitini tashkil etishning konseptual asoslarini taklif etadi. Shu nuqtai



nazardan, rivojlantiruvchi muhitning nazariy asoslari, tamoyillari va uning samarali tashkil etilishi usullarini o'rganish dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi ^[1; 2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Rivojlantiruvchi ta'lim muhiti masalasi jahon va milliy pedagogika fanida keng o'rganilgan. J. Piagetning konstruktiv nazariyasi bolaning o'z faoliyati va atrof-muhit bilan o'zaro ta'siri orqali bilim va tushunchalarni konstruksiya qilish jarayonini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv hozirgi kunda maktabgacha ta'limda muhitni loyihalashning nazariy asosi bo'lib xizmat qilmoqda ^[6].

L.S. Vigotskiy bolaning ijtimoiy muhit va "yaqin rivojlanish zonasi"dagi o'zaro ta'sir orqali rivojlanishini asoslab bergan. Uning nazariyasiga ko'ra, muhit bolaga erishish mumkin bo'lgan yangi psixologik funksiyalarni o'zlashtirishda yo'l-yo'riq ko'rsatadigan "madaniy vosita" sifatida xizmat qilishi lozim ^[7].

M. Montessori "o'rganuvchan ong" tushunchasini kiritib, muhitni "uchinchi pedagog" deb atagan. Uning metodologiyasida muhit bolaning sezgi organlari orqali o'z-o'zini tarbiyalashi va mustaqil o'rganishi uchun maxsus tayyorlangan materiallar hamda jarayonlar majmuini ifodalaydi ^[8].

Reggio Emilia yondashuvi (Italiya) muhitni "uchinchi o'qituvchi" sifatida talqin qiladi va uni bolalarning "yuz tili"ni ifoda etuvchi, ularning tadqiqotlari va loyihalarini qo'llab-quvvatlovchi, shaffof hamda demokratik makon sifatida ko'radi.

O'zbekiston pedagogik fani doirasida M.M. Rizayeva maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi ta'lim muhitini shakllantirish prinsiplarini o'rganib, uning mazmuniy jihatlari va didaktik imkoniyatlarini ochib bergan. N.S. Mo'minova esa rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda yosh xususiyatlari va individual yondashuvning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi ^[4; 5].

O'zbekiston me'yoriy hujjatlari – "Ilk qadam" dasturi va Davlat standartlari rivojlantiruvchi muhitni guruh xonasidagi "rivojlantiruvchi markazlar" orqali tashkil etishni nazarda tutadi. Ushbu markazlar bolaning turli sohalaridagi faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishga yo'naltirilgan ^[3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari o'rganish maqsad qilingan.

Tadqiqotning obyekti – maktabgacha ta'lim jarayoni, predmeti esa – maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi rivojlantiruvchi muhit va uning turlaridir.

Tadqiqotning maqsadi rivojlantiruvchi muhitning tashkiliy, pedagogik va psixologik tamoyillarini aniqlash, uning turlarini tasniflash hamda ularni amaliyotda joriy etishning samarali yo'llarini taklif qilishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

- 1) rivojlantiruvchi muhitning psixologik-pedagogik nazariy asoslarini tahlil qilish;
- 2) rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishning asosiy tamoyillarini aniqlash;
- 3) "Ilk qadam" dasturida ko'rsatilgan faollik markazlarining turlari, mazmuni va vazifalarini o'rganish;
- 4) rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish va undan samarali foydalanishda pedagogning rolini aniqlash;
- 5) muhitning samaradorligini baholash usullarini belgilash hamda uni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

TAHLIL VA NATIJALAR

Rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishning asosiy tamoyillari. Tadqiqot natijalariga ko'ra, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida samarali rivojlantiruvchi muhit quyidagi tamoyillar asosida qurilishi zarur:

- xavfsizlik va gigiyena – barcha jihoz va materiallar sanitariya talablariga, bolalar uchun fiziologik va psixologik xavfsizlik shartlariga javob berishi kerak;
- faollik va mustaqillik – muhit bolani harakatga, tanlov qilishga, tajriba o'tkazishga undashi va uning erkin, mustaqil faoliyatini rag'batlantirishi lozim;
- o'zgaruvchanlik va moslashuvchanlik – muhit vaqt o'tishi, mavzu, bolalarning qiziqishlari va o'quv vazifalariga mos ravishda o'zgartirilishi, to'ldirilishi, qayta jihozlanishi mumkin bo'lishi kerak;

- integratsiya va funksionallik – har bir faollik markazi bolaning bir necha sohalarida (masalan, nutq, kichik motorika, ijod) bir vaqtning o'zida rivojlanishiga xizmat qilishi lozim;
- estetiklik va ma'naviy boyitish – muhit chiroyli, tartibli, mazmunli hamda milliy madaniy qadriyatlarni aks ettiruvchi bo'lishi zarur;
- inklyuzivlik – har qanday imkoniyatga ega bo'lgan, shu jumladan maxsus ehtiyojli, barcha bolalar uchun qulay va qamrab oluvchi muhit yaratilishi talab etiladi.

Rivojlantiruvchi markazlarning turlari va vazifalari. "Ilk qadam" dasturi asosida MTTlarda quyidagi 5 ta asosiy rivojlantiruvchi markazni tashkil etish belgilangan:

- qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi – bolalarning fazoviy tasavvuri, mantiqiy fikrlashi, matematik tushunchalari va konstruktiv ko'nikmalarini rivojlantiradi, bunda turli qurilish to'plamlari, mozaikalar va loyihalash stollari mavjud bo'ladi;
- syujetli-rolli o'yinlar va dramalashtirish markazi – bolalarning ijtimoiy va hissiy intellektini, kommunikativ ko'nikmalarini hamda fantaziyasini rivojlantirishga xizmat qiladi, ushbu markazda turli kiyimlar, uy-ro'zg'or buyumlari, qo'g'irchoqlar va kichik sahna maydonchalari joylashtiriladi;
- til va nutq markazi – nutq rivojlanishi, fonematik eshitish, tilga qiziqishni oshirish hamda kelajakda savodxonlikka tayyorgarlikni ta'minlaydi, bunda kitoblar, rasmlar, audiohikoyalar, harflar va so'zlar bilan ishlash uchun materiallar to'plami mavjud bo'ladi;
- fan va tabiat markazi – bolalarda tadqiqotchilik ruhini, tabiat hodisalariga qiziqishni va ilmiy tafakkurni shakllantiradi, bu yerda lupalar, mikroskoplar, tabiiy materiallar, o'simliklar hamda tajriba jihozlari joylashtiriladi;
- san'at markazi – nozik motorika, rang va shakl idrokini, estetik his-tuyg'ularni hamda ijodiy ifodani rivojlantiradi, markazda turli ranglar, qog'ozlar, yopishtiruvchi materiallar, bo'yoqlar, plastilin, tabiiy va chiqindi materiallardan foydalanish imkoniyati yaratiladi.

Mazkur asosiy markazlardan tashqari, guruhning imkoniyatlari va bolalarning ehtiyojlariga qarab musiqa markazi, qum va suv markazi, pazandachilik markazi kabi qo'shimcha, vaqtinchalik yoki loyihaviy markazlar ham tashkil etilishi mumkin.

Pedagogning roli. Rivojlantiruvchi muhit faqat jihoz va materiallar yig'indisi emas, balki pedagogning faol va maqsadli pedagogik faoliyati bilan jonli muhitga aylanadi. Pedagogning roli muhitni loyihalovchi va tashkil etuvchi sifatida bolalar yoshi va qiziqishlarini hisobga olgan holda markazlarni joylashtirish va jihozlashdan, kuzatuvchi va tahlilchi sifatida bolalarning harakatlarini, o'zaro munosabatlarini hamda rivojlanish dinamikasini kuzatishdan, moderator va rag'batlantiruvchi sifatida bolalarni faoliyatga jalb qilish, ularni mustaqil qaror qabul qilishga undash, biroq bevosita aralashmaslikdan, shuningdek, muhitni doimiy yangilovchi sifatida materiallar va faoliyat turlarini muntazam ravishda boyitib, o'zgartirib turishdan iborat. Shu bilan birga, pedagog ota-onalar va jamoatchilik bilan hamkor sifatida muhit yaratish va boyitish jarayoniga ularni faol jalb etishi lozim.

Samaradorlikni baholash. Rivojlantiruvchi muhitning samaradorligini baholashda bolalarning turli markazlarda o'tkazgan vaqtining taqsimlanishi va sifat darajasi, mustaqilligi va tanlov qilish qobiliyatining ortishi, muloqot va hamkorlikdagi ijobiy o'zgarishlar, muammolarni hal qilish hamda ijodiy yondashuv ko'rsatkichlari, bolalarning hissiy holati va guruhdagi psixologik iqlimning ijobiy dinamikasi kabi mezonlardan foydalanish mumkin. Xalqaro tajribada ECERS (Erta bolalik muhitini baholash shkalasi) kabi standartlashtirilgan o'lchov vositalari qo'llaniladi.^[9]

XULOSA VA TAKLIFLAR

Rivojlantiruvchi muhit – bu faqat maktabgacha ta'lim tashkilotining moddiy-texnik bazasi emas, balki bolaning shaxs sifatida integrallashuvi, mustaqil o'rganishi va har tomonlama rivojlanishini ta'minlovchi murakkab pedagogik tizimdir. "Ilk qadam" dasturida belgilangan beshta asosiy faollik markazi bolaning rivojlanishining barcha sohalarini (kognitiv, ijtimoiy-hissiy, nutqiy, jismoniy, ijodiy) qamrab oladi va ularning o'zaro integratsiyasi rivojlantiruvchi muhitning samaradorligini oshiradi. Muhitning samaradorligi uning to'g'ri loyihalashini, bolalar faoliyatiga yo'naltirilganligi, doimiy ravishda yangilanib turishi va pedagogning kasbiy kompetentligiga bevosita bog'liq.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhit sifatini oshirish va uni samarali boshqarish maqsadida kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish, xususan, MTT rahbarlari va tarbiyachilari uchun "Rivojlantiruvchi ta'lim muhitini loyihalash va boshqarish", "Faollik markazlarida pedagogik hamrohlik" mavzularida amaliy treninglar, ustaxonalar va malaka oshirish kurslarini tashkil etish, moddiy-texnik bazani modernizatsiya qilish orqali MTTlarni milliy va xalqaro standartlarga mos, sifatli, bolalar uchun xavfsiz, ko'p



funksiyali o'yin va o'quv materiallari bilan ta'minlash, materiallar ishlab chiqarishda mahalliy xom ashyo va milliy an'analardan foydalanishni rag'batlantirish, rivojlantiruvchi muhitning holati va samaradorligini muntazam baholash uchun milliy standartlashtirilgan ko'rsatkichlar, jumladan, xalqaro ECERS shkalasiga moslashtirilgan monitoring tizimini ishlab chiqish va joriy etish, rivojlantiruvchi muhitni yaratish va boyitishda ota-onalar, mahalla faollari hamda homiylik tashkilotlari ishtirokini kuchaytirish, ular uchun ochiq eshik kunlari va o'quv-seminarlari o'tkazish, shuningdek, rivojlantiruvchi muhitning bolalar rivojlanishiga ta'sirini o'rganishga qaratilgan fundamental va amaliy ilmiy-tadqiqotlarni olib borish, Reggio Emilia, HighScope va boshqa xalqaro ilg'or tajribalarni o'rganish hamda ularni milliy sharoitga mos holda adaptatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo'nalishlarda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar maktabgacha ta'lim sifatining izchil oshishiga hamda O'zbekiston yosh avlodini har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalash vazifasining samarali amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PF-4312-sonli qarori "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida". – 2019. <https://lex.uz/ru/docs/-4327235>
2. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim va tarbiya Davlat o'quv dasturi. – Toshkent, 2020.
3. Rizayeva, M.M. "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi ta'lim muhitini shakllantirish" // "Maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini rivojlantirish: amaliyot va xorijiy tajriba" respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – 2024. – 23–24-may.
4. Mo'minova, N.S. "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari sharoitlarida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish" // "Лучшие интеллектуальные исследования" jurnali. – 2024.
5. Piaget, J. The Origins of Intelligence in Children. – New York: International Universities Press, 1952.
6. Vigotskiy, L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
7. Montessori, M. The Absorbent Mind. – New York: Dell Publishing, 1967.
8. Harms, T., Clifford, R.M., Cryer, D. Early Childhood Environment Rating Scale (ECERS-R). – New York: Teachers College Press, 2005.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.